

Charm poyabzal chiqindilaridan samarali foydalanish usullari.
Методы эффективного использования отходов кожаной обуви.
Methods for effective use of leather shoe waste.

Namangan davlat texnika universiteti
PhD. dot A.O.Xomidjonov
Namangan davlat texnika universiteti
tayanch doktorant M.A.Jumayeva

Annotatsiya: Charm-poyabzal sanoati mahalliy xomashyo - hayvonlar terisidan yumshoq va qattiq charm, tabiiy va sun'iy charmdan poyabzal, shuningdek, telpak, ot-ulov asboblari, attorlik buyumlari, to'qimachilik va boshqa mashina uchun detallar ishlab chiqaradi. Charm sanoati O'zbekistonda hunarmandchilikning qadimiy turi sifatida mavjud. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qo'qon shaharlarida, Xorazmda yuzlarcha ko'pchilik do'konlari bo'lib, ularda teridan turli nav charmlar tayyorlangan.

Kalit so'zlar: charm, teri, charm chiqindilar, to'qimachilik - tolalar, poyabzal, pardozlash, xayvon terilari, galanteriya buyumlari.

Ko'pchilik korxonalar ustki kiyim, poyabzal, galanteriya buyumlari (sumka, belbog') tikish uchun material sifatida, mebel, avtomobil o'rindiqlarini qoplash, jabduqlar va jihozlar uchun, shuningdek, mashina qismlari va texnik maqsadlarda ishlatiladigan charm ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Teri xomashyosi asosan sigir, buzoq va cho'chqa terilari, shuningdek, echki, qo'y va ot terilari hisoblanadi. Ishlab chiqarish ustaxonalarida terini ko'p bosqichli ketma-ket qayta ishlash amalga oshiriladi, bu sochlarni olish, strukturani ajratish, to'gridan-to'g'ri ko'pchilik, barabanni bo'yash va keyingi bir qator pardozlash jarayonlari va operatsiyalaridan iborat.

Eng yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan haqiqiy charm assortimenti, shuningdek uni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan xom ashyoning qisqacha tavsifi, 1-jadvalda keltirilgan.

Poyabzal korxonalardan chiqayotgan charm chiqindilarini o'rganish.

Ushbu maqolada Farg'ona shahridagi "Uzsalaman" QK hamda "Kamron shoes" poyabzal ishlab chiqaruvchi korxonalar misolida ulardan chiqadigan chiqindilari va ulardan foydalanishning yo'nalishlari muhokama qilinadi. Teri

ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalanish muammosi tahlil qilinib, chiqindilar turlari ko‘rib chiqildi. Ishda dunyoda qo‘llanilayotgan charm buyum ishlabvchiqaruchi korxonalari chiqindilarini qayta ishlashning mashhur usullari va texnologiyalari tizimlashtirilgan. Chiqindilarni ishlatishning asosiy yo‘nalishlari aniqlandi: tolali tuzilmani saqlash, kollagen molekularini saqlash va kollagenni turli usullar bilan to‘liq yoki qisman parchalash. Bu sanab o‘tilgan usullarni tanlanmagan teri chiqindilariga ham qo‘llash mumkinligi ko‘rsatilgan. Yuqoridagi korxonalarda o‘rganishlar natijasida yiliga 30-35 ming to‘nna charm qoldiq chiqindilarini chiqishini aniqladik.



1-rasm. Texnologik jarayonlardagi chiqayotgan charm chiqindilari namunalari.





2-rasm. Texnologik jarayonlardagi chiqayotgan charm namunalari.

Poyabzal chiqindilariga yelim, kauchuk, plastiklarga ajratiladi. Bunda Granulatsiya va qayta plastifikatsiya texnologiyasini qo‘llash orqali foydali holatga o‘tkazishimiz mumkin. Bunda quyidagi jarayonlar olib boriladi, chiqindilarni ajratish va tasniflash, yuvish va quritish, maydalash (shrederlar yordamida), ekstruziya yo‘li bilan granula olish. Ushbu texnologiyani mohiyati shundaki 400–800°C da chiqindilar kislorodsiz muhitda parchalanadi. Bunda piroliz moyi va gaz va uglerod qoldiqlari hosil bo‘ladi. Ushbu texnologiyadan foydalanishning afzalligi shundaki, atmosferaga zararli chiqindilarning kamayishi va plastmassalardan energiya olish imkoniyatini beradi. Materialning tuzilishiga chuqur integratsiyalashgan yuqori texnologiyali jarayonlardan foydalanish katta energiya xarajatlarini talab qilishi ko‘rsatilgan, ammo bu jarayonlar charm sanoati korxonalarida amalga oshirilishi mumkin. Kamroq energiya sarflaydigan jarayonlar, jumladan, mahsulotni maydalash va uni turli mahsulotlarda, masalan, qurilish materiallari, teriga o‘xshash materiallarda bezak dettalar sifatida ishlatish va tikuvchilik korxonalariga ilmiy loyiha sifatida sotish uchun eng maqbul variantlardir.

Qayta ishlash usullari bilan bir qatorda texnologik jarayonlar natijasida olingan mahsulotlardan foydalanish sohalari aniqlanadi. Ushu qoldiq chiqindilarni ustki kiyim uchun bezak va erkaklar va ayollar bosh kiyimlarida bezak detallar va yeng detallari vazifasini bajarish qo‘llanilishini va resurs tejamkor texnologiyasini ishlab chiqishni taklif etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Данзангийн Эрдэнэбат. Вооружение, одежда, кожаные шлемы и доспехи монголов периода империи чингисидов. Диссертация. Улан-Удэ, 2015. 206 стр.
2. Abdullajonova N.G., Mavlyanov S.M., Abdullayev Sh.V., Dalimov D.N. Kolorimetriceskiy metod opredeleniya gidrolizuyemykh dubilnykh veshchestv // Dokl. AN RUz. Tashkent, 2000, № 10.
3. Дильдабеков Д.С. Применение маскирующих веществ при выработке кож для низа обуви с использованием комплексных минеральных дубителей. Автореферат дис. канд. техн. наук, Тараз. 1997.- 50с.
4. I.A.Eromina, R.A.Ivanova “Texnicheskiy analiz i kontrol kojevennogo proizvodstva” M,Legprombytizdat, 1989
5. Mirboboeva, G., Isroilova, N., & Rakhmonova, M. (2024). A COMPARATIVE ANALYSIS OF FLAX FIBRE FOR INDUSTRIAL APPLICATIONS. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods, 2(10), 11-16.
6. Tursumatova, S., Tursunov, D., & Isroilova, N. (2023). Research on the Production of Special Clothing for Car Repair Workers, Taking into Account Human Ergonomic Characteristics. Eurasian Research Bulletin, 17, 204-209.

Research Science and Innovation House